“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Janubiy Koreyada o‘rmon hududlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalarni huquqiy qo‘llab-quvvatlash natijasida erishilgan natijalar

Odinaxon Xalimova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti talabasi
e-mail: o.xalimova@gmail.com

Dilshoda Boymirzayeva,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti talabasi
e-mail: d.boymirzayeva@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqola Janubiy Koreyaning ekologik tiklanish va o‘rmon hududlarini kengaytirishga qaratilgan strategik sa’y-harakatlarini tahlil qiladi. Koreya urushidan keyingi davrda yuzaga kelgan ekologik inqirozga javoban hukumat tomonidan amalga oshirilgan huquqiy chora-tadbirlar, jumladan, 1973-yilgi “Milliy o‘rmonlashtirish dasturi”ning ahamiyati batafsil yoritilgan. Maqola Koreyaning o‘rmonlash bo‘yicha yutuqlari xalqaro miqyosda e’tirof etilgani va bu tajriba boshqa mamlakatlarga tavsiya etilayotganini ko‘rsatadi.

Калит сўзлар. Janubiy Koreya, o‘rmonlashtirish, ekologik tiklanish, Milliy o‘rmonlashtirish dasturi, yashil rivojlanish, huquqiy asoslar, xalqaro hamkorlik, ekologik barqarorlik

Аннотация. В этой статье анализируются стратегические усилия Южной Кореи по восстановлению окружающей среды и расширению лесов. Подробно описаны правовые меры, принятые правительством в ответ на экологический кризис периода после Корейской войны, включая значение Национальной лесной программы 1973 года. В статье показано, что достижения Кореи в области лесоразведения получили международное признание и что этот опыт рекомендуется другим странам.

Ключевые слова. Южная Корея, облесение, экологическое восстановление, Национальная программа лесного хозяйства, зеленое развитие, правовая база, международное сотрудничество, экологическая стабильность

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. This article analyzes South Korea's strategic efforts for ecological restoration and forest expansion. Legal measures implemented by the government in response to the environmental crisis of the post-Korean War period, including the significance of the National Forestry Program of 1973, are detailed. The article shows that Korea's achievements in afforestation have been recognized internationally and that this experience is recommended to other countries.

Keywords. South Korea, afforestation, ecological restoration, National Forestry Program, green development, legal framework, international cooperation, ecological stability

Kirish

Kyoung-Min, Myung-Kil, Pranab Baruah, Eun-Hee kabi olimlarning izlanishlari, tadqiqotlari va adabiyotlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Janubiy Koreya, iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiyaga intilish jarayonida ekologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatgan davlatlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ammo so‘nggi o‘n yilliklarda mamlakat ekologik barqarorlikka erishish va tabiiy resurslarni himoya qilish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishdi. 1950-yillardagi Koreya urushi mamlakatdagi ko‘plab o‘rmonlarni vayronaga aylantirdi, natijada Koreya yarimoroli ekologik halokatga yuz tutdi. Urushdan so‘ng, mamlakat bo‘ylab o‘rmon maydonlarining kamayishi bilan eroziya va yerning yaroqsizlanishi ko‘payib, muammolar kuchaygan. 1960-yillarning oxirlariga kelib, Janubiy Koreyada o‘rmon bilan qoplangan hudud atigi 35 foizni tashkil etar edi. Shunday sharoitda muvozanatni tiklash maqsadida hukumat tomonidan 1973-yilda amalga oshirilgan “Milliy o‘rmonlashtirish dasturi” Koreyaning o‘rmon xo‘jaligi tarixidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu dastur orqali 1980-yillarga kelib mamlakat bo‘ylab jami 1 mlrddan ortiq daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi, natijada o‘rmon maydonlari 64 foizga yetdi . Bugungi kunga kelib, Janubiy Koreya o‘zining o‘rmon bilan qoplangan hududlarini 63 foizga yetkazib, ekologik tiklanish va o‘rmonni kengaytirish bo‘yicha xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro yashil rivojlanish instituti (GGGI) Koreyaning ekologik yutuqlarini yuqori baholab, boshqa davlatlarga ham bu tajribani o‘rganishni tavsiya qilmoqda[1].

Janubiy Koreya yo‘nalishda olib borayotgan siyosati bugungi ekologik inqiroz sharoitida namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada Koreyaning o‘rmon hududlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalarning huquqiy va tarixiy asoslari, olimlarning fikrlari va amaliyotdan misollar keltiriladi. Bunday siyosat nafaqat ekologik barqarorlikni tiklashga, balki mahalliy aholi uchun ish o‘rinlarini yaratishga, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Koreyada o‘rmonlarni muhofaza qilish va kengaytirishga oid huquqiy chora-tadbirlar va davlat siyosati uzoq muddatli ekologik rivojlanish strategiyasi sifatida shakllantirilgan. Bu jarayonda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mamlakat bir qator muhim qonunlarni qabul qilib, o‘rmonni qayta tiklash va tabiatni asrash bo‘yicha keng qamrovli davlat dasturlarini amalga oshirdi. Janubiy Koreyada o‘rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi eng muhim huquqiy hujjatlardan biri “Forest Act” (O‘rmon to‘g‘risidagi qonuni) hisoblanadi. Ushbu qonun o‘rmon hududlarini muhofaza qilish, o‘rmonni barqaror boshqarish va tabiiy resurslarni saqlash bo‘yicha aniq yondashuvlarni belgilaydi. Qonunga ko‘ra, o‘rmonlar davlat tomonidan himoyalanadi va ularni noqonuniy ravishda kesish, yondirish yoki boshqa shaklda zarar yetkazish qat’iyan man qilinadi.

“Forest Act” quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

O‘rmonlarni boshqarish va tiklash dasturlari. “Forest Act” ning 5-moddasiga ko‘ra, Koreya hukumati o‘rmonlarning saqlanishi va qayta tiklanishini ta’minlash uchun har yili maxsus dasturlarni tasdiqlaydi va moliyaviy resurslar ajratadi.

Tabiatni muhofaza qilish. Qonunning 10-moddasi ekologik ahamiyatga ega hududlarda o‘rmonlarning saqlanishini ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralarning mavjudligini belgilaydi. Ushbu modda orqali muhofaza hududlarida qurilish va o‘rmonlarni kesish bilan bog‘liq har qanday faoliyat qat’iyan nazorat qilinadi.

Keyingi muhim qonun esa “O‘rmonchilikning asosiy yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida” (“Framework Act on Forestry”) Janubiy Koreyada o‘rmonlarni rivojlantirish va ulardan foydalanishning umumiy strategiyasini belgilovchi asosiy qonunlardan biridir. Bu qonun ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan hamda o‘rmon xo‘jaligini yanada rivojlantirish maqsadida davlat va xususiy sektorni birgalikda ishlashga undaydi. Ushbu qonun Janubiy Koreyada o‘rmonchilikni rivojlantirishga doir muhim jihatlarni o‘z ichiga olgan, shu jumladan: **Milliy o‘rmon rivojlantirish strategiyalari.** Qonunning 15-moddasiga ko‘ra, har besh yilda o‘rmonni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya qabul qilinadi. Ushbu strategiya ekologik va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun yo‘l-yo‘riq beradi.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash. Qonunning 20-moddasiga muvofiq davlat ekologik va iqtisodiy barqarorlik uchun o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni moliyalashtiradi. O‘rmonlarni tiklash, kengaytirish va ekologik infrastrukturani rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlari joriy etilgan.

Koreyaning qayta o‘rmonlashtirish dasturlari orasida Milliy o‘rmonlashtirish dasturi(National reforestation project) alohida e’tirofga sazavor. 1973-yilda boshlagan ushbu loyiha orqali koreys hukumati Koreya yarim orolining deyarli butun hududlarini ekologik tiklanish doirasida qayta o‘rmonlashtirishga erishgan.

Dastur quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan.

O‘rmonlarni tiklash loyihalari va mintaqaviy boshqaruv. Dasturda o‘rmonlarni tiklash uchun mamlakat bo‘ylab qo‘llanilgan hududiy rejalar mavjud. Ushbu huquqiy asos orqali Koreyaning har bir mintaqasida ekologik loyihalar amalga oshirilib, ularning nazorati mahalliy hokimiyatlarga yuklatilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ijtimoiy ahamiyatli o‘rmon. Koreya hukumati ushbu loyihada ishtirok etgan mahalliy aholini qo‘llab-quvvatlash, ularni o‘rmon hududlarini tiklash va saqlashga jalb qilish uchun maxsus huquqiy qoidalarni o‘rnatdi. Qonuniy ravishda o‘rmonni tiklash jarayonida ishtirok etgan aholiga soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalari berildi. 2008-yilda Janubiy Koreya hukumati ekologik tiklanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Green Growth Strategy”ni qabul qildi. Bu strategiya Koreyaning ekologik va iqtisodiy rivojlanishini uyg‘unlashtirish maqsadida ekologik barqarorlikni saqlash va yashil energiya manbalarini kengaytirishga qaratilgan. Strategiyada quyidagi kabi asosiy yo‘nalishlar mavjud edi:

Ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash. Ushbu strategiya asosida ekologik loyihalarga davlat tomonidan moliyaviy resurslar ajratiladi va yashil texnologiyalarning rivojlanishi uchun soliq imtiyozlari ko‘rsatiladi. Strategiyaga muvofiq o‘rmon va boshqa tabiiy resurslarni qayta tiklash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylanadi.

Qonunchilikda islohotlar va xalqaro hamkorlik. Strategiyaning bir qismi sifatida Koreya xalqaro ekologik tashkilotlar, jumladan, “Global Green Growth Institute” bilan hamkorlikda ishlaydi, bu orqali ekologik tiklanish va rivojlanish.

Hozirgi kunda Janubiy Koreya o‘rmonlarni kengaytirish va barqaror boshqarish sohasida yirik muvaffaqiyatlarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2020-yilga kelib, Koreya o‘rmon qoplamasini 63 foizga yetkazgan bo‘lib, bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Koreyaning o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha amalga oshirgan ishlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro yashil rivojlanish instituti (GGGI) kabi tashkilotlar yuqori baholagan. Koreya o‘zining tajribasini boshqa rivojlanayotgan davlatlarga ham tavsiya etmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va yondashuvlar

Tadqiqotlardan biriga ko‘ra, Koreyada o‘rmonlarni qayta tiklashda davlatning kuchli rahbarligi, aniq milliy maqsadlar belgilanishi va keng jamoatchilik qo‘llab-quvvatlovi muvaffaqiyatning asosiy omillari bo‘lgan. Olim Jae Soo Bae boshchiligidagi tadqiqotda aytilishicha, mamlakatning o‘rmon qoplami 1950-yillardan buyon ikki barobar oshgan. Ushbu muvaffaqiyat yomonlashgan yerlarni tiklash va tabiiy vegetatsiyani qayta tiklash orqali erishilgan. Shu bilan birga, 1970-yillarda ko‘mir iste’molining ortishi bilan o‘tin uchun o‘rmonlardan foydalanish kamaygan, bu o‘rmon resurslarining tiklanishiga katta yordam bergan. Tadqiqotlarda Janubiy Koreyada o‘rmonlarni kuzatish va tiklashda texnologiyalarning ahamiyati qayd etilgan. Masalan, zamonaviy sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida o‘rmonlarning holati monitoring qilingan, bu esa tezkor chora ko‘rishga imkon yaratgan[2].

Yana bir tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Koreyaning o‘rmonlarni tiklash jarayonida konfutsiylik madaniyatining kuchli ta’siri ham qayd etilgan. O‘rmonlar avloddan-avlodga muqaddas

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

joy sifatida qaralgan bo‘lib, bu o‘rmonlarni muhofaza qilishda jamoatchilikning qatnashuvini rag‘batlantirgan. Bu jarayon konfutsiylik tamoyillarini davlat siyosatiga moslashtirgan holda amalga oshirilgan[3].

Janubiy Koreyada o‘rmonlashtirishning muvaffaqiyatli tajribalari

Ushbu tajribalardan birinchisi sifatida “Birinchi milliy yashillik rejasi” (1973-1978)ni kiritishimiz mumkin. Park Chung-Hee rahbarligi ostida amalga oshirilgan ushbu dastur o‘rmonlarni qayta tiklashda asosiy burilish nuqtasi bo‘ldi. Loyihaning maqsadi 10 yil ichida mamlakatning barcha holsizlangan o‘rmonlarini tiklash edi, ammo bu reja muddatidan oldin, 1978-yilda muvaffaqiyatli yakunlandi. Ushbu loyiha davomida mamlakat bo‘ylab millionlab daraxtlar ekilib, 10 ming gektardan ortiq hududlar tiklandi[4].

Koreyada odamlarni o‘rmonlarni tiklashga jalb qilish uchun “Daraxt ekish – bu Vatan sevgisi” va “Daraxtni kesish – jinoyat, daraxt ekish – vatanparvarlik” kabi shiorlar tarqatildi. Bu shaxsiy ishtirokni rag‘batlantirgan va keng ko‘lamli o‘rmon tiklash jarayoniga olib kelgan[5].

O‘rmon xo‘jaligi qonunchiligiga asoslanib, Janubiy Koreya hukumati o‘rmonlarni qayta tiklash va eroziyaga qarshi kurash loyihalarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Ushbu loyihalar Milliy iqtisodiy rivojlanish rejalarida (NEDPs) bog‘langan. 1-NEDP (1962-1966) energiya manbalarini ta’minlash va yoqilg‘i taqchilligini bartaraf etishga intildi. 1-NDEP asosida konchilikni rivojlantirish loyihalari Janubiy Koreyada o‘tin o‘rniga ko‘mir briketlarini almashtirishga ta’sir ko‘rsatdi. 2-NEDP (1967–1971) o‘rmonlarni qayta tiklashni iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi sifatida belgiladi[6:630-638]. 1950-yillarda Janubiy Koreyaning yomonlashgan hududlari 680 000 ga dan ko‘proqqa ko'tarildi, bu Janubiy Koreyadagi umumiy o‘rmon maydonlarining taxminan 10% ni tashkil qiladi. Kuchli davlat dasturlari tufayli yomonlashgan hududlar 1972 yilda 120 ming gektargacha qisqardi.

O‘rmonlarni muhofaza qilish siyosati joriy etilganiga qaramay, o‘rmonlarni noqonuniy kesish nazorat qilinmadi. 1945-yildan 1961-yilgacha noqonuniy daraxt kesishning chastotasi 24 085 holatni, noqonuniy kesilgan yog‘ochning o‘rtacha hajmi yiliga 92 853 m 3 ni tashkil etdi[7:72-80]. O‘rmonlarni qayta tiklash va o‘rmon siyosatini kuchaytirish muhimligini tan olgan holda, samarali va samarali o‘rmon siyosatini amalga oshirish uchun Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi vazirligi (MAF) qoshidagi O‘rmon xo‘jaligi byurosi kengaytirilishi kerak edi. O‘rmon boshqaruvi kuchini kuchaytirish uchun Koreya o‘rmon xizmati (KFS) 1967-yilda MAF qoshida milliy o‘rmon boshqaruvi agentligi sifatida tashkil etilgan.

II bosqich: O‘rmonlarni qayta tiklash (1973–1997)

Jiddiy ijtimoiy muammolarni (masalan, yoqilg‘i yetishmasligi, kuchli suv toshqini va qurg‘oqchilik) keltirib chiqargan bu vayron bo‘lgan o‘rmonlarni tiklash uchun NFDPlar tashkil etildi. 1960-yillardagi huquqiy va institutsional tayyorgarlikdan so‘ng, 1973-yilda O‘rmonlarni qayta tiklash loyihalari boshlandi. 1-NFDP

davrida, 1973-yildan 1978-yilgacha jami 41 932 ga[8:19-48] joyda eroziyaga qarshi kurash ishlari olib borildi. Hukumat aholining faol ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida butun mamlakat bo‘ylab daraxt ekish davri (21-mart – 20-aprel) va daraxt o‘stirish kunini e’lon qildi. 1-NFDP davrida jamoatchilik ishtiroki bilan 1,08 million gektar denude qilingan o‘rmon oxir-oqibat tez o‘sadigan daraxt turlari bilan tiklandi. 10 yillik loyiha 1982-yildagi maqsadidan 4 yil oldin yakunlandi. 1-NFDP o‘rmonlarning kesilishi va degradatsiyasining asosiy omili sifatida kesish va kuyish (SAB) yetishtirishni taqiqladi. KFS qashshoqlikdan aziyat chekkan fermerlarning hayotini ta’minlashga harakat qildi. KFS 1974-yildan 1979-yilgacha SAB kultivatorlarining xavfsizligini ta’minlash uchun 1974-yildan 1979-yilgacha bo‘lgan dalalarni yo‘q qilish uchun umumiy budjetning 69,9 foizini ajratdi – 38,3 foizi uy xo‘jaliklarini qayta taqsimlash uchun va 31,6 foizi tirikchilikni ta’minlash uchun SAB uy xo‘jaliklariga 1974-yildan 1979-yilgacha har bir xonadonga 0,2 dan 0,5 milliongacha koreys voni (413 dan 1033 AQSh dollari) miqdorida ko‘chib o‘tish uchun kompensatsiya to‘langan. 1,0 USD taxminan 1974-yilda 484,0 koreys voniga teng edi. Dalalarni kesish va yoqishni bekor qilish to‘g‘risidagi qonunga muvofiq hukumat SAB dalalarini tashlab ketgan fermerlarni haydaladigan yerlar va uy-joy bilan ta’minladi. SAB konlarini bekor qilish siyosatidan kelib chiqadigan iqtisodiy kompensatsiya 1970-yillarga qadar urinishlar muvaffaqiyatsiz bo‘lgan buyruq va nazoratni tartibga solishga qarama-qarshi edi. SAB maydonlarining bekor qilinishi va uy xo‘jaliklarining ko‘chirilishi uchun to‘lovlar Janubiy Koreyada o‘rmonlarni muvaffaqiyatli tiklashga yordam berdi[9:200-210].

2-10 yillik NFDP (1979-1987) ichki yog‘och ehtiyojlari uchun barqaror yog‘och resurslariga aylantirilishi mumkin bo‘lgan yirik tijorat o‘rmonlarini barpo etishni maqsad qilgan. Shuningdek, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning moliyaviy yordamidan foydalanib, Koreya hukumati zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirdi va ko‘plab tajribalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Shu bilan birga, o‘rmonlarni tiklash faqat iqtisodiy emas, balki ekologik barqarorlikka ham yo‘naltirilgan edi[10].

Janubiy Koreyada o‘rmonlashtirishning rivojlanish bosqichlari.

Janubiy Koreyaning o‘rmonlashtirish tarixini o‘rganish, mamlakatning ekologik tiklanish yo‘lida qanday yirik bosqichlarni o‘taganini ko‘rsatadi. Koreyaning o‘rmonlashtirish siyosati rivojlanishining asosiy bosqichlari urushdan keyingi ekologik inqirozdan to bugungi ekologik barqarorlikka erishish yo‘lida amalga oshirilgan muhim dasturlarni o‘z ichiga oladi.

Koreya urushi (1950-1953) o‘rmonlar va tabiatga katta zarar yetkazdi. Urush davomida o‘rmonlar ommaviy ravishda kesildi, yong‘inlar va boshqa tabiiy ofatlar sababli o‘rmon hududlarining yarmidan ko‘pi yo‘q bo‘ldi. Mamlakatning ko‘plab hududlarida daraxtzorlar vayron bo‘ldi, bu esa eroziya, suv tanqisligi va tuproqning yaroqsizlanishiga olib keldi. Urushdan keyin Koreya o‘rmonlarini qayta tiklash, ekologik muvozanatni tiklash va tabiiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

resurslarni himoya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga keldi.

1961-yilda Koreya hukumati “Milliy Reforestation Project” (Milliy qayta o‘rmonlashtirish dasturi)ni boshladi. Ushbu dastur o‘rmonlarni qayta tiklash va yangi daraxtzorlar yaratish, shu bilan birga, eroziya va tuproq ifloslanishining oldini olish maqsadida amalga oshirildi. Dasturda davlatning moliyaviy yordami bilan keng miqyosda daraxt ekish ishlari boshlandi. Ushbu dastur davomida quyidagi asosiy yutuqlar erishildi:

Daraxtlarni kesishni kamaytirish: O‘rmonlarni kesish va ishlov berish siyosati qat’iylashtirildi, barcha o‘rmon ishlariga hukumat tomonidan qat’iy nazorat o‘rnatildi.

O‘rmonlarni saqlash va tiklash: 1970-yilda Koreya o‘rmonlarini tiklash maqsadida 1 milliarddan ortiq daraxt ko‘chatlari ekildi, bu esa o‘rmon hududlarini tiklashga katta hissa qo‘shdi.

1980-yillarga kelib, Koreya o‘rmonlari tiklangan bo‘lsa-da, ularning barqaror boshqarilishi va uzoq muddatli ekologik saqlanishi uchun yangi qonunlar va siyosatlar joriy qilindi. 1987-yilda “Forest Act” (O‘rmon to‘g‘risidagi qonun) qabul qilindi. Bu qonun o‘rmonlarning saqlanishi, boshqarilishi va rivojlanishi bo‘yicha yangi prinsiplarni belgiladi. Ushbu qonun orqali o‘rmonlar nafaqat ekologik muhim hudud sifatida, balki iqtisodiy resurs sifatida ham boshqariladigan bo‘ldi.

1988-yilda “Forest Service” (O‘rmon Xizmati) tashkil etildi, bu esa o‘rmonchilik sohasini markazlashgan holda boshqarish imkonini berdi. O‘rmonni boshqarish sohasida professional kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun alohida institutlar tashkil etildi.

1988-yilda qabul qilingan “O‘rmon to‘g‘risidagi qonun” – “Forest Act” quyidagi muhim xususiyatlarga ega edi:

O‘rmonlarni boshqarish bo‘yicha ilmiy yondashuvning joriy etilishi va o‘rmon resurslarini barqaror boshqarish.

Ekologik ahamiyatga ega hududlarda o‘rmonlarni saqlash va tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar.

“Green Growth Strategy” (Yashil Rivojlanish Strategiyasi) 2008-yilda rasmiy ravishda joriy etilgan bo‘lsa-da, u 1990-yillardan boshlab aniq siyosat va huquqiy asoslar bilan ta’minlanib kelgan. Koreya 1997-yilda Kioto protokoli va 2015-yilda Parij bitimi kabi xalqaro ekologik kelishuvlarga imzo chekkan davlat sifatida o‘rmon resurslarini barqaror boshqarish va qayta tiklashga qat’iy yondashdi.

Bu jarayonda Koreya hukumatining siyosatiga ko‘ra, o‘rmonlarni saqlashga alohida e’tibor berilib, yangi texnologiyalar, ayniqsa, yashil energiya va ekologik toza texnologiyalar rivojlantirishga qaratilgan dasturlar joriy etildi.

Xulosa

Janubiy Koreyaning o‘rmonlarni tiklashdagi tajribasi, yurtning tabiiy resurslarini saqlab qolish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ekologik tiklanishni amalga oshirishda hukumatning muhim rolini namoyon etadi. Mamlakatning o‘rmon qoplami 1950-yillardan buyon sezilarli kengaygan bo‘lib, bu asosan, kuchli davlat siyosati,

milliy yondashuvlar va jamiyatning faol ishtiroki bilan amalga oshirilgan. Koreya hukumatining o‘rmonlarni qayta tiklashga bo‘lgan yondashuvi aniq maqsadlarni belgilash, ilmiy va texnologik yondashuvlar, shuningdek, jamoatchilikni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘ldi.

O‘rmonlarning tiklanishi ko‘plab tarixiy bosqichlardan o‘tgan, ular orasida yirik davlat dasturlari va keng ko‘lamli jamiyat ishtirokini o‘z ichiga olgan rejalashtirishlar mavjud. Konfutsiylik madaniyati va jamoaviy ruh koreyaliklarni o‘rmonlarni qadrlash va ularga e’tibor berishga undadi. Hukumatning reforestation bo‘yicha ko‘rsatmalarining qat’iyligi va jamiyatning o‘z resurslarini tiklashga bo‘lgan yondashuvi muvaffaqiyatga erishishning asosiy kaliti bo‘ldi.

Shuningdek, Janubiy Koreya o‘rmonlarni tiklashda texnologiyalardan faol foydalanib, o‘rmonlarni nazorat qilish va ularni himoya qilishda zamonaviy metodlarni qo‘lladi. Bu tizimli yondashuv ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtirishga yordam berdi. Koreyaning o‘rmonlarni tiklashdagi tajribasi boshqa mamlakatlar uchun ham foydali bo‘lib, bu tajriba boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun o‘rmonlarni qayta tiklash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, Janubiy Koreya o‘rmonlarni tiklashga oid tajriba o‘ziga xos muvaffaqiyatlar va yutuqlarni taqdim etdi, bu esa mamlakatning ekologik tiklanishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan manbalar

1. Korea's Green Transition And Technology Strengths December 2020.

2. Oh, Sam & Kim, Eun-Hee & Kim, Kyoung-Min & Kim, Myung-Kil. (2020). A Study on the Application of Successful Forest Greening Experience for Forest and Landscape Restoration: A Comparative Study of Two Koreas. Sustainability. 12. 8712. 10.3390/su12208712.

3. https://forestsnews.cifor.org/4723/turning-bare-land-into-a-green-nation-how-south-korea-recovered-its-degraded-forests?fnl=en

4. https://www.theearthandi.org/post/full-reforestation-after-war-how-south-korea-did-it

5. https://ndcpartnership.org/knowledge-portal/good-practice-database/reforestation-south-korea-achieves-almost-pre-war-era-status

6. Jo, JH; Koo, JC; Youn, YC Shimoliy Koreyada o'rmonlarni kesishning oldini olish uchun REDD loyihasining iqtisodiy maqsadga muvofiqligi. J. Forest Soc. 2011 , 100 , 630–638.

7. Park, M.; Youn, Y. Yaponiya va Koreya Respublikasida o'rmonlarni ko‘paytirish va himoya qilish uchun uglerod moddasi sifatida huquqiy institutlar. uchun. Sci. Technol. 2013 , 9 , 72–80-b

8. Park, M.; Youn, Y. O‘rmon uglerod kreditlari uchun Janubiy Koreyaning REDD + strategiyasini ishlab chiqish. J. Environ. Siyosat

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

administratori. 2012 , 20 , 19–48.

9. Koo, J.; Park, M.; Youn, Y. Janubiy Koreyada shahar aholisining shahar o'rmonlari rekreatsion xizmatlariga bo'lgan afzalliklari. Urban For. Shahar yashil. 2013, 12, 200–210.]

10. https://sdg.iisd.org/news/fao-study-draws-lessons-from-korean-forest-rehabilitation-plans/

11. https://ndcpartnership.org/knowledge-portal/good-practice-database/reforestation-south-korea-achieves-almost-pre-war-era-status